

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

YARSEVA SVETLANA VLADIMIROVNA

“SPANGLISH” TIL INTERFERENSIYASI HODISASI SIFATIDA

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

УДК: 811.134.2(72)'276+811.111(73)'276

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Yarseva Svetlana Vladimirovna

“Spanglish” til interferensiyasi hodisasi sifatida..... 3

Ярцева Светлана Владимировна

«Спанглиш» как явление языковой интерференции..... 23

Yartseva Svetlana Vladimirovna

“Spanglish” as a Phenomenon of the Language Interference..... 45

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

YARSEVA SVETLANA VLADIMIROVNA

“SPANGLISH” TIL INTERFERENSIYASI HODISASI SIFATIDA

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunoslik ilmiy hamjamiyatida tillarning o‘zaro ta’siri eng muhim lingvistik masalalardan biridir, zero, zamonaviy dunyoda tillarning o‘zaro ta’siri deyarli har doim sodir bo‘luvchi jarayon bo‘lib, bunga migratsiya, turizm sohasi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivoji xizmat qiladi. Til interferensiyasi muammosi qiyosiy-tarixiy til paradigmasi cho‘qqiga chiqqan vaqtdayoq ko‘tarilgan edi, biroq antropotsentrik tilshunoslikka o‘tish mazkur masalani yanada dolzarblashtirdi. Interferensiya hodisasi natijalari tillarning o‘zaro ta’sir darajasiga qarab turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, ikkinchi tilni o‘rganishda birinchi tilning ta’siri ostida yuzaga keladigan xatolar kuchsiz o‘zaro ta’sir shaklida namoyon bo‘lsa, eng rivojlangan interferensiya shakli yangi til fenomenlarining shakllanishiga, hattoki aralash tilning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Dunyoda, ayni vaqtda, eng keng tarqalgan aralash tillardan biri bu “spanglish” bo‘lib, u ispan va ingliz tillarining aralashmasidan iborat. Bu tillar dunyodagi eng muhim va keng qo‘llanadigan tillar qatoriga kirib, Ethnologue'ning 2024-yilgi ma’lumotlariga¹ ko‘ra, ikkinchi va to‘rtinchi o‘rinlarni egallaydi. “Spanglish”ning til iyerarxiyasining turli sathlaridagi interferensiyasi chuqur tahlil qilinishi va tizimlashtirilishi lozim. Bu masalaga avvallari yetarlicha e’tibor qaratilmagan va keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Xorij tilshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda “spanglish”ning faqat ayrim leksik, morfologik va fonetik jihatlari o‘rganilgan. Bundan tashqari, ushbu lingvistik hodisaning evolyutsiyasi, uning tarqalishiga oid ma’lumotlar umumlashtirilmagan va tahlil qilinmagan. “Spanglish”ning lingvistik maqomi ham hozirgacha aniqlashtirilmagan.

O‘zbekiston Respublikasida ham tillar va madaniyatlarning o‘zaro ta’siri nihoyatda faol hamda doimiy rivojlanib borayotgan jarayon bo‘lib, bunga globallashtirish va axborotlashish jarayonlari ta’sir ko‘rsatmoqda. Respublikaning boshqa mamlakatlar bilan faol o‘zaro muloqoti zamonaviy til madaniyatini tushunish zaruratini keltirib chiqarib, ayni vaqtda, “spanglish”ning g‘arb olamida tez va faol tarqalishi ushbu hodisani respublika miqyosida o‘rganishni dolzarblashtiradi, chunki “zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, ma’rifatli bo‘lish va yuksak madaniyatga ega bo‘lishga intilish barchamiz uchun hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”².

Mazkur dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlarida, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

¹ <https://www.ethnologue.com/statistics/>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga 25.01.2020-yildagi Murojaatnomasi // <https://uz.uz/ru/politics/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyeev-25-01-2020>

to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3755-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada hissa qo'shmoqda.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tillarning o'zaro ta'sirini va til interferensiyasini o'rganishga G.Paul, G.Shuhard, I.Boduen de Kurtene, M.Bartoli, L.Shcherba, E.Haugen, A.Karlinский, G.Stepanov, V.Abayev, C.Mayers-Skotton, R.Appel va P.Muysken hamda hozirgi bosqichda ham O.Domnich, M.Dyachkov, J.Bagana va E.Xapilina, N.Vaxtin va E.Golovko³ kabi xorijiy olimlar sezilarli hissa qo'shganlar. Jumladan, Amerika tilshunosi U.Vaynrayx (U.Weinreich)⁴ning til interferensiyasi masalasi va uning turlari tadqiqini alohida qayd etish joizdir. Til interferensiyasi muammosi bilan shug'ullanuvchi o'zbek tilshunos olimlaridan A.Abduazizov, J.Buranov, U.Yusupov, M.Djusupov, Sh.Asqarovalarning ishlarini qayd qilish joiz⁵.

³ Paul H. Prinzipien der Sprachgeschichte, 1880 // Русский перевод: Г. Пауль. Принципы истории языка. – М., 1960. – 428 с.; Шухард Г. К вопросу о языковом смешении // Избранные статьи по языкознанию. Изд. 2-е. – М.: Едиториал УРСС, 2003. – С. 174-184.; Бодуэн де Куртенэ. Избранные труды по общему языкознанию. – М., 1963. – 364 с.; Bartoli M. Substrato, superstrato, adstrato // Rapport au 5-me Congres international des linguistes. – Brugues, 1939. – P. 96-109.; Щерба Л.В. О понятии смешений языков // Избранные работы по языкознанию и фонетике. Т. I. – Л., 1958.; Щерба Л. В. Языковая система и речевая деятельность. – Л., 1974. – 432 с.; Haugen E. Bilingualism in the Americas: A bibliography and research guide. Publications of the American dialect society. – No. 36. – Alabama: University of Alabama Press, 1956. – 159 p.; Хауген Э. Языковой контакт // Новое в лингвистике. Вып. 6. – М., 1972. – С. 61-80.; Карлинский А.Е. Основы теории взаимодействия языков. – Алма-Ата: Гылым, 1990. – 180 с.; Степанов Г.В. К проблеме языкового варьирования. Испанский язык Испании и Америки. – URSS, 2021. – 328 с.; Степанов Г.В. Испанский язык в странах Латинской Америки. – Издательство литературы на иностранных языках, 1963. – 202 с.; Абаев В.И. О языковом субстрате // Доклады и сообщения Института языкознания АН СССР. – М., 1956. – Т. IX. – С. 57-69.; Myers-Scotton C. Contact Linguistics: Bilingual encounters and grammatical outcomes. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – 342 p.; Appel R. & Muysken P. Language contact and bilingualism. – Amsterdam, 1987. – 213 p.; Домнич О.В. Лексические заимствования в аспекте контактной лингвистики и теории лексикографии (на материале автохтонных заимствований в канадский, австралийский и новозеландский варианты английского языка). Дис. канд. наук: 10.02.04. – Запорожье, 2010. – 274 с.; Домнич О.В. Аспекты теории типологии языковых контактов // Вісник Запорізького державного університету. Філологічні науки, 2002. – № 1. – С. 26-32.; Дьячков М.В. Социально-исторические условия пиджинизации языка // Вопросы социолингвистики. – М., 1986. – С. 107-122.; Багана Ж., Хапилина Е. Контактная лингвистика. Взаимодействие языков и билингвизм. Монография. – М.: Флинта, 2016. – 160 с.; Вахтин Н., Головкин Е. Социолингвистика и социология языка. Учеб. пособие. – СПб: Гуманитарная академия, 2004. – 336 с.

⁴ Вайнрайх У. Языковые контакты. – Киев: Вища школа, 1979. – 263 с.; Вайнрайх У. Одноязычие и многоязычие // Новое в лингвистике. Вып. 6 / под ред. В.Ю.Розенцвейга. – М.: Прогресс, 1972. – С. 25-60.

⁵ Абдуазизов А.А. Сопоставительный анализ гласных фонем английского и узбекского языков (на основе рентгенографических фотографических данных): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1967. – 34 с.; Буратов Дж. Б. Сравнительная типология английского и тюркских языков: Учебное пособие. – М.: Высшая

“Spanglish”ni o‘rganish sohasida amerikalik va lotin amerikalik tilshunoslarning, asosan, ilmiy maqolalarda keltirilgan ishlari nisbatan muhim ahamiyat kasb etadi: I.Stavans, J.Lipski, A.Ardila, E.Xuarros-Daussa, A.Munoz, R.Nginios, J.Valenzuela, D.Ramirez va boshqalar⁶. J.Lipski o‘z izlanishida “spanglish”dan kundalik foydalanish masalasiga hamda ingliz tilining ispan komponentiga ta’siriga alohida e’tibor qaratgan. I.Stavans mazkur masalaning tarixiy, madaniy va amaliy jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratgan. R.Nginios va J.Valenzuelalar “spanglish” shakllanishi tarixining ba’zi bosqichlarini ko‘rib chiqishgan, E.Juarros-Daussa morfologiya va leksik interferensiyaning ayrim jihatlarini tahlil qilgan. Ushbu muammoning ayrim jihatlarini rossiyalik tadqiqotchilar ham o‘rganishgan. Jumladan, D.Kiselyova “spanglish”ning ba’zi fonetik xususiyatlarini tadqiq qilgan, T.Osinseva kodlar almashinuvi muammolarini, N.Mixeyeva ispan tili so‘zlarining ma’nolari ingliz tili ta’siri ostida o‘zgarishini tahlil qilganlar⁷. Ta’kidlash joizki, tadqiqotchilar, asosan, ushbu aralash tilning shakllanish tarixi bilan bog‘liq alohida, tarqoq faktlarni keltirishgan. Til tizimiga kelsak, asosiy e’tibor “spanglish”ning tizimlashtirilmagan morfologik va leksik tahliliga qaratilgan.

Ta’kidlash joizki, tilshunoslik ilmida “spanglish”ning tarixiy taraqqiyoti, lisoniy va ijtimoiy-madaniy maqomini, uning fonetik, morfologik, sintaktik, leksik, so‘z yasalishi, ayniqsa, stilistik jihatlarini interferensiya nuqtayi nazaridan o‘rganuvchi yaxlit tadqiqotlar mavjud emas.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim

школа, 1983. – 267 с.; Юсупов У.К. Сопоставительная лингвистика как самостоятельная дисциплина // Методы сопоставительного изучения языков. – Москва, 1988. – С. 6-11.; Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. – Т.: Фан, 2007. – 127 с.; Джусупов М. Звуковые системы русского и казахского языков. Слог. Интерференция. Обучение произношению. – Т.: Фан, 1991. – 239 с.; Асқарова Ш.И. Лингвистик интерференциянинг хусусиятлари ҳақида (Фарғона вилоятида немис тилини ўрганиш мисолида): Филол. фан. б. фалс. док. ... дис. ... автореф. – Фарғона, 2022. – 56 б.

⁶ Stavans I. Spanglish: The Making of a New American Language. – New York: HarperCollins Publishers, 2003. – 288 p.; Stavans I. Impulsor del spanglish desafia a profesores, traductores y lingüistas // Second Seminar on the Transatlantic Dimension of the Spanish Language. – New York, 2001.; Lipski J.M. Varieties of Spanish in the United States. – Georgetown University Press, 2008. – 320 p.; Lipski J.M. Varieties of Spanish in the United States. – Georgetown University Press, 2008. – 320 p.; Lipski J.M. ¿Existe un dialecto estadounidense del español? // V Congreso Internacional de la Lengua Española. – Valparaíso, Chile, 2010. URL: http://www.cervantestv.es/v_cile/; Lipski J.M. La lengua española en los Estados Unidos: avanza a la vez que retrocede // Revista Española de Lingüística. – 2003. – № 33. – P. 231-260.; Ardila A. Spanglish: An Anglicized Spanish Dialect // Hispanic Journal of Behavioral Sciences, 2005. February. Vol. 27. – № 1. – P. 60-81.; Juarros-Daussa Eva. El Spanglish. 2012. URL: <http://www.ub.edu/diccionarilinguistica/content/el-spanglish/>; Muñoz A.A. Idioma castellano amenaza derrotar al inglés en su propia tierra: ¿spanglish? 2017. URL: <http://www.surysur.net/idioma-castellano-amenaza-derrotar-al-ingles-en-su-propia-tierra-spanglish/>; Valenzuela J. El vigor del ‘spanglish’. – Madrid: El País, 1997. URL: <http://www.el-castellano.com/elpais.html>; Ramirez J., Ramos L. The Value of Spanglish in the Rio Grande Valley // Journal of Bilingual Education Research & Instruction. – Texas: The University of Texas, 2019. – P. 47-61.

⁷ Киселёва Д.С. О некоторых фонетических особенностях spanglish как результатах действия межъязыковой интерференции // Научное сообщество студентов XXI столетия. Гуманитарные науки: сб. ст. по мат. IV междунар. студ. науч.-практ. конф. – Новосибирск, 2012. – С. 166-173.; Осинцева Т.В. Спэнглиш как феномен заимствований в испанском языке. – Белгород: Белгородский государственный национальный исследовательский университет, 2016. URL: <https://izron.ru/articles/aktualnye-voprosy-sovremennykh-gumanitarnykh-nauk-sbornik-nauchnykh-trudov-po-itogam-mezhdunarodnoy-sektsiya-20-romanskie-yazyki-spetsialnost-10-02-05/spenglish-kak-fenomen-zaimstvovaniy-v-ispanskom-yazyke/>; Михеева Н.Ф. Межвариантная диалектология испанского языка. Учебное пособие. – М.: Издательство Российского университета дружбы народов, 2006. – 117 с.

muassasaning ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining “Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari” muammosi bo‘yicha istiqbolli ilmiy tadqiqot ishlari rejasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi “spanglish”ning lisoniy maqomini belgilash, uning fonetik, morfologik, sintaktik, leksik, so‘z yasalishi va stilistik interferensiyasi qonuniyatlarini o‘rganish hamda tizimlashtirishdan iborat.

Maqsaddan kelib chiqib, quyidagi **tadqiqot vazifalari** belgilandi:

“spanglish”ning hozirgi rivojlanish bosqichidagi lingvistik va ijtimoiy-madaniy (sotsiomadaniy) maqomini aniqlash;

“spanglish”ning fonetik, morfologik, sintaktik, leksik, so‘z yasalishi va stilistik interferensiyasi qonuniyatlarini aniqlash hamda ularni tizimlashtirish;

“spanglish”da ingliz va ispan komponentlarining ta’sir darajasini aniqlash;

har xil turdagi matnlarda (badiiy adabiyot, qo‘shiq, reklama, internet matnlari) “spanglish” til birliklarining qo‘llanish xususiyatlarini asoslash.

Tadqiqotning obykti aralash til – “spanglish”da qo‘llanuvchi interferensiyalangan lisoniy birliklaridir.

Tadqiqotning predmetini “spanglish” lisoniy birliklaridagi fonetik, morfologik, sintaktik, leksik, so‘z yasalishi va stilistik interferensiya jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ushbu tadqiqotda lingvistik tavsif metodi, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik tahlil, tasniflash metodi, komponentli tahlil, identifikatsiya metodi, stilistik tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“spanglish”ning aralash tillar sinfiga mansub ekanligi uning asosiy (fonetik, morfologik, leksik va sintaktik) lingvistik xususiyatlari hamda ijtimoiy-madaniy ahamiyati (bilingvizm, madaniy o‘zlikni anglash, hududiy cheklanmaganlik, turli matn turlarida qo‘llanishi va boshqalar)ni tahlil qilish asosida dalillangan;

“spanglish”ning interferensiya hodisasi asosida shakllanishidagi lingvistik qonuniyatlar (ichki va tashqi kodlar almashinuvi, turli so‘z turkumlarining fonetik va grammatik modifikatsiyasi, gibrid leksemalar, frazeologik birliklar va stilistik vositalarning qo‘llanishi, gapda so‘zlarning erkinroq tartibi) aniqlangan va ular tilning fonetik, morfologik, sintaktik, leksik sathlari, so‘z yasash hamda stilistik birliklar darajasida tizimlashtirilgan;

interferensiya asosida “spanglish” til birliklarining shakllanishiga ingliz va ispan tillarining ta’sir darajasi hamda tahlil natijasida fonetik, sintaktik va so‘z yasash til birliklarida ispan tilining kuchliroq ta’siri, morfologik, leksik sathlari va stilistik birliklar darajasida esa ikki tilning taxminan bir xil o‘zaro ta’siri aniqlangan;

“spanglish” lisoniy birliklarining har xil turdagi matnlarda qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganish natijasida “spanglish” tilidagi qo‘shiq, shiorlar, reklama va internet memlari matnlariga ko‘proq leksik, so‘z yasalishi va morfologik interferensiya xos ekanligi, badiiy matnlarda esa barcha turdagi interferensiyalar namoyon bo‘lishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“spanglish”ning lingvistik maqomini aniqlash aralash tillar tasnifini aniqlashtirishga xizmat qiladi;

aralash tilning fonetik, morfologik, sintaktik, leksik sathlari hamda so‘z yasash birliklari darajasida interferensiyasini tahlil qilishda qo‘llangan kompleks metodika boshqa lingvistik tuzilmalarning interferensiyaga uchragan birliklarini tahlil qilish jarayonida ham amaliy qo‘llanishi mumkin;

turli sathlarda interferensiyaga uchragan birliklarni tahlil qilish va tizimlashtirish roman-german tillari fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisi, leksikasi, stilistikasi va so‘z yasalishi sohasidagi tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega hamda til birliklarining aralash holda qo‘llanishining yangi imkoniyatlarini ochib beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy lingvistik yondashuvlarning qo‘llanishi, avvalgi tadqiqotlar nazariy bazasining tanqidiy tahlil qilinishi, “spanglish” bo‘yicha ko‘p sonli nazariy tadqiqotlar va amaliy materiallarning tahlil qilinganligi, olingan natijalarning tadqiqotning nazariy asoslariga muvofiqligi, shuningdek, yuqori impakt-faktorga ega bo‘lgan milliy va xalqaro jurnallardagi nashrlar bilan ta‘minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Ishning ilmiy ahamiyati ingliz va ispan tillari kesishuvida paydo bo‘lgan nisbatan yangi aralash til – “spanglish”ning tadqiq etilishiga hamda til interferensiyasi nazariyasini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi bilan belgilanadi. “Spanglish”ning tarixiy rivojlanishi, uning lisoniy va ijtimoiy-madaniy maqomining aniqlanishi, uning avval batafsil tahlil qilinmagan interferensiya shakllarining (fonetik, morfologik, sintaksik, leksik, so‘z yasash) yoki umuman tadqiq etilmagan (stilistik) jihatlarining chuqur tahlili, “spanglish” shakllanishi asosi sifatida namoyon bo‘lgan va tadqiqotda aniqlangan interferensiyaning lingvistik qonuniyatlari roman-german tillari, umumiy tilshunoslik, kontakt lingvistika va interferensiya nazariyasini rivojlantirishga muayyan hissa qo‘shadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati tadqiqot natijalari va tahlil qilingan amaliy materiallardan roman-german tillari, umumiy tilshunoslik, sociolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, kontakt lingvistika, madaniyatlararo kommunikatsiya bo‘yicha ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlarida, shuningdek, interferensiya va bilingvizm masalalariga bag‘ishlangan ixtisoslashtirilgan kurslarda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi. Tadqiqot materiallari “spanglish”ning til xususiyatlari, uning tarixi va umuman interferensiya muammolari bo‘yicha ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar va malakaviy ishlar yozishda ham qo‘llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Spanglish”ni til interferensiyasi natijasi sifatida o‘rganish jarayonida olingan nazariy xulosalar va amaliy natijalar quyidagilarda ishlatilgan:

“Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJning “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida mutaxassislikning ingliz tili fanlari bo‘yicha o‘quv jarayoniga virtual resurslarni

yaratish va joriy etish” amaliy loyihasida foydalanilgan (“Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJning 2023-yil 31-avgustdagi № I-204-4-5-sonli ma’lumotnomasi). Bunda til interferensiyasi, uning chet tilidan foydalanishdagi ijobiy va salbiy tomonlari masalasiga oid nazariy hamda amaliy ishlanmalar jalb etilgan. Natijada mediamatlarda, badiiy va reklama matnlarida “spanglish” fenomenidan foydalanish bilan bog‘liq yangi virtual dasturlar ishlab chiqilgan;

Erasmus+ ICM 2020-1-UK01-KA107-078419 “KA-107-International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs” xalqaro loyihasida foydalanilgan (O‘zDJTuning 2024-yil 13-maydagi 01/273-sonli ma’lumotnomasi). Bunda fonetik, morfologik va sintaktik interferensiyani o‘rganish va uning tillar aralashuvidagi qonuniyatlarini aniqlash bilan bog‘liq nazariy ishlanmalar jalb etilgan. Taqdim etilgan natijalar loyiha ishtirokchilarining ingliz tilining turli darajalaridagi interferensiya hodisalari haqidagi nazariy va amaliy bilimlarini boyitishga yordam bergan;

Britaniya Kengashi ko‘magidagi “English as a school subject” (1683580) xalqaro tadqiqot loyihasida foydalanilgan (O‘zDJTuning 2024-yil 13-maydagi 01/274-sonli ma’lumotnomasi). Bunda leksik va so‘z yasalishi interferensiya turlari haqida, shuningdek, ingliz tili lug‘atini o‘zlashmalar orqali boyitishning muhim jarayoni ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanilgan. Natijada nazariy ishlanmalar tadqiqot loyihasiga kiritilib, O‘zbekiston maktab o‘quvchilari tomonidan ingliz tilini o‘rganishda interferensiya hodisasini chuqurroq o‘rganishga xizmat qilgan;

“O‘zbekiston” teleradiokanalining “Foreign Languages” telekanalining “Good morning, Uzbekistan!”, “English club” va “IELTS secrets” ta’limiy teleko‘rsatuvlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tasarrufidagi “O‘zbekiston Teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 27-iyundagi 05-24-788-sonli ma’lumotnomasi). Bunda OAV va Internet makonida, shuningdek, ingliz va ispan tillarida so‘zlashuvchilarning o‘zaro ta’sirida “spanglish” aralash tilining zamonaviy tarqalishi, unga xos lingvistik va ekstralingvistik omillar bo‘yicha tadqiqot natijalari qo‘llangan. Natijada, ushbu teledasturlarning alohida epizodlarini tayyorlashda tadqiqotchining “spanglish”ning zamonaviy lisoniy maqomi va interferensiyasi tahlilidan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 25 ta ilmiy maqola, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, xalqaro jurnallarda 7 ta maqola, xalqaro anjumanlar to‘plamlarida 5 ta maqola, respublika konferensiyalari to‘plamlarida 4 ta tezis chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 129 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi aniqlangan; tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliy natijalari bayon etilgan; olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyasining **“Spanglish”ning lingvistik va ijtimoiy-madaniy maqomi** deb nomlanuvchi birinchi bobida “spanglish”ning tarixiy rivojlanish jarayoni, uning tarqalishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-madaniy omillar, lisoniy maqomi muammosi tadqiq qilingan. “Spanglish” shakllanishining asosi sifatida til interferensiyasi hodisasi, u bilan bog'liq asosiy tushunchalar va jarayonlar ko'rib chiqilgan.

Ispan tilining ingliz tili bilan birinchi marotaba maishiy kontekstda XVII asrda tilga olinishi qayd etilgan, ammo “spanglish”ning keng tarqalishi va rivojlanishi 1846-1848-yillardagi Amerika-Meksika urushi oqibatida kuzatilgan bo'lib, bu vaqtda Ispaniyaning ba'zi mustamlakalari (hozirgi Kaliforniya, Nyu-Meksiko, Arizona, Nevada va Yuta shtatlari) AQSh qo'l ostiga o'tgan⁸. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridagi Ispaniya-Amerika urushi “spanglish”ning rivojlanishiga hamda tarqalishiga sabab bo'ldi. AQShning sobiq Ispaniya mustamlakasi bo'lgan (Puerto-Riko, Panama, Filippin orollari, Kuba)⁹ hududlarini bosib olishi natijasida ushbu hududlarda ispan tiliga nisbatan qisman ta'qiqlar ingliz tilida muloqot qilish zaruratini yuzaga keltirdi va natijada ispan hamda ingliz tillari aralashmasi paydo bo'ldi. Globallashtirish, axborotlashtirish, kommunikatsiyalar rivoji va migratsiya jarayonlari ham “spanglish”ning bu til hodisasi tarqalmagan hududlarda keng tarqalishiga sabab bo'ldi hamda uning turli yosh va ijtimoiy toifalar o'rtasida qo'llanishiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazdi.

Hozirgi kunda “spanglish”da turli janrlardagi badiiy asarlar (romanlar, hikoyalar, she'rlar) yaratilmoqda (I.Stavans, G.Braschi, A.L.Vega, J.Diaz, A.F.Ada, J.Alvarez va boshqalar)¹⁰. “Spanglish”da bir qator jurnallar va gazetalar, televizion va radio kanallari mavjud. “Spanglish” musiqa, reklama va media sohalarida keng qo'llanadi, bu esa uning ingliz va ispan tillarida gapirmaydigan mamlakatlarda ham tarqalishiga sabab bo'lmoqda.

“Spanglish”ning lisoniy maqomi muammosi haligacha muhokama qilinayotgan masala hisoblanadi. Shunga ko'ra, “spanglish”ning til maqomini unga xos xususiyatlar asosida aniqlashga intildik. Mavjud tadqiqotlar asosida ikki yoki bir necha tillarning kesishuvlarida shakllangan tillarning xususiyatlarini, masalan, “chatishtirilgan”, gibrid va aralash tillar, shuningdek, dialekt va “intertil”ning

⁸ Потокова Н.В. Агрессия США против Мексики. 1846-1848. – М.: Соцэкгиз, 1962. – С. 141.

⁹ Кондратенко Р.В. Испано-американская война (1898 г.) – СПб.: Цитадель, 2000. – С. 46-47.

¹⁰ Stavans I., de Cervantes M. Don Quixote of La Mancha. – The Pennsylvania State University Press, University Park, Pennsylvania, 2018. – 124 p.; Braschi G. Yo-yo Boing! – Las Vegas: Amazon Crossing, 2011. – 249 p.; Vega Ana Lydia. Pollito Chicken. – Puerto Rico, 1977. – 4 p.; Díaz J. The Brief Wondrous Life of Oscar Wao. – Riverhead Books, 2007. – 340 p.; Flor Ada Alma. Me encantan los Saturdays y los domingos. – Alfabuara, 2004. – P. 230-245.

xususiyatlarini o‘rgandik hamda ularni “spanglish”ga xos bo‘lgan xususiyatlar bilan taqqosladik.

Ma’lumki, “chatishtirilgan” tillar uchta asosiy turga bo‘linadi: substrat (mahalliy aholining tili boshqa til tomonidan yutib yuborilishi), superstrat (kirib kelgan til mahalliy tilga ta’sir ko‘rsatadi, lekin uning tizimini buzmaydi) va adstrat (neytral til ta’siri turi, u uzoq vaqt davomida ikki yoki undan ortiq tillarning o‘zaro ta’siri natijasida vujudga keladi, bu tillar o‘z tizimlari xususiyatlarini birlashtiradi va o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi).

Gibrid tillar qatoriga pidjinglar (ko‘pincha etnik guruhlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni ta’minlash maqsadida vujudga kelgan tillar) va kreol tillari (pidjinning mahalliy xalqning ona tiliga aylanib, u manba tildan bir qator funksional va strukturaviy jihatlari bilan farq qiladi) kiradi.

Dialekt deganda ma’lum bir hududda cheklangan miqdordagi so‘zlovchilar tomonidan ijtimoiy yoki kasbiy ehtiyojlar uchun doimiy bo‘lgan til shaklidan foydalanish tushuniladi¹¹. “Intertil” (“interlanguage”)¹² – shaxsning ikkinchi tilni birinchi tilning ta’siri orqali o‘rganishini tavsiflashning oraliq bosqichi.

Aralash tillar shaxslarning bilinvligi (ikki tilliligi) natijasida, ya’ni har ikkala tilni yuqori darajada egallaganligi natijasida beixtiyor ushbu tillarning tarkibiy qismlari birlashtirilib yagona til tizimiga aylanganda paydo bo‘ladi. O‘zaro aloqaga kirishuvchi xalqlarning o‘z-o‘zini identifikatsiya qilishga intilishi bunday tillarning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi. Aralash til rivojlanishi davomida asta-sekin til iyerarxiyasining barcha sathlarini qamrab oladi, dastlabki hudud sarhadlaridan tashqariga chiqadi, aholining turli ijtimoiy qatlamlari orasida tarqaladi va adabiy xususiyatlarni o‘zida namoyon etadi¹³.

“Spanglish” so‘zlovchilarining ijtimoiy holati va maqomi, jinsi, faoliyat doirasi, mazkur tilning muayyan hudud bilan chegaralanmaganligi, badiiy adabiyotda va ommaviy madaniyatda keng qo‘llanishi uni dialekt yoki “intertil” sifatida tasniflashga yo‘l qo‘ymaydi. “Spanglish”ni pijing yoki kreol tili toifasiga ham kiritib bo‘lmaydi, chunki u mahalliy aholining ona tilidan kichik qo‘shimchalarni o‘z ichiga olgan bitta tilga asoslanmagan hamda qat’iy vaziyatlilik va ma’lum bir geografik turg‘unlik xususiyatlariga ega emas. “Spanglish” bir tilning boshqa til tomonidan yutib yuborilishi yoki assilyatsiya qilinishi natijasida vujudga kelmagan, bu esa uni substrat va superstrat fenomeni sifatida talqin etishga yo‘l qo‘ymaydi. “Spanglish”ning rivojlanishi, dastlabki qo‘llanish hududidan tashqariga chiqib, turli ijtimoiy qatlamlarni qamrab olishi va adabiy xususiyatlarga egaligi uni adstrat toifasiga kiritish imkonini ham cheklaydi.

O‘z-o‘zini identifikatsiyalashning ijtimoiy-madaniy omili, qo‘llanish bo‘yicha hududiy chegaralanmaganligi hamda turli kasbiy, ijtimoiy, ta’limiy, yosh toifalariga

¹¹ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Либроком, 2010. – 576 с.

¹² Selinker L. Interlanguage // International Review of Applied Linguistics in Language Teaching. – 1972. – Vol. 10. – P. 209-241.

¹³ Bakker P., Mous M. Mixed Languages: 15 Case Studies in Language Intertwining. – Amsterdam: ICG-Printing-Dordrecht, 1994.; Matras Y. Mixed language: a functional-communicative approach // Bilingualism: Language and cognition 3 (2). – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – P. 35-68.; Вахтин Н., Головкин Е. Социоллингвистика и социология языка // Смешанные языки. – СПб: Гуманитарная академия, 2004. – 336 с.

mansub millionlab so‘zlashuvchilarning mavjudligi, shuningdek, “spanglish”ning bilingvizmga hamda ingliz va ispan tillarini yuqori malaka bilan egallaganlikka asoslanganligi (bu ularning simbiozini yaratish imkonini beradi), uning til iyerarxiyasidagi barcha sathlari interferensiyaga asoslanganligi “spanglish”ga “aralash til” lisoniy maqomini berish imkonini beradi.

“Spanglish”ning asosi tillarning o‘zaro ta’siri natijasi sifatida ta’riflanuvchi lisoniy interferensiya hodisasi bo‘lib, bunda bir tilning muayyan birliklari boshqasiga va aksincha o‘tadi, ya’ni tillar o‘z me’yorlarini ma’lum darajada buzib bir-biriga moslashadi. Aksariyat tilshunoslar til iyerarxiyasining turli sathlaridagi interferensiyani interferensiyaning asosiy turlari deb hisoblaydilar. Xususan, “spanglish” fonetik, morfologik, leksik, sintaktik, shuningdek, so‘z yasash va stilistik interferensiya bilan tavsiflanadi.

“Spanglish”ning fonetik, morfologik va sintaktik sathlaridagi interferensiya jarayonlari” deb nomlanuvchi ikkinchi bobda “spanglish”ning yuqorida sanab o‘tilgan til sathlaridagi lisoniy interferensiyasi tahlil qilingan. O‘rganilgan misollar asosida “spanglish”ni tashkil etuvchi tillarning o‘zaro ta’sir qonuniyatlari yuzaga chiqarilgan.

Fonetik interferensiya sust differentsiatsiyasida (tovushlarning yetarlicha farqlanmasligida), kuchli differentsiatsiyasida (haddan tashqari farqlanishida), farqlarning reinterpretallashuvida yoki substitutsiyasida namoyon bo‘ladi¹⁴. Tahlilimiz shuni ko‘rsatdiki, “spanglish”ning fonetik interferensiyasi quyidagi turlarni qamrab oladi:

1. *Tovushlarning farqlanmasligi*: **a)** undosh tovushlar (sust differentsiatsiya): /v/ va /b/, /s/ va /z/, /j/ va /ʃ/ fonemalari. Masalan: har ikkisi /ʃ/ bilan talaffuz qilinganda “chin” va “shin” kabi so‘zlar orasida tovush tafovuti yo‘qoladi; **b)** cho‘ziq unli tovushlar (sust differentsiatsiya va farqlarning reinterpretallashuvi): /ɪ:/ va /i/, /e/, /æ/ va /ei/, /u:/ va /u/, /ʌ/ va /a:/, /o:/ va /o/ tovushlari bir xil talaffuz qilinadi: “door” so‘zi /dor/ yoki /door/ sifatida talaffuz qilinishi mumkin, inglizcha “to park”dan hosil bo‘lgan “parquear” so‘zi o‘zgarishlar vaqtida cho‘ziq /a:/ tovushini yo‘qotadi va /ʌ/ tovushiga ega bo‘ladi va hokazo.

2. *Ayrim diftonglarning tushib qolishi (farqlarning reinterpretallashuvi)*: **a)** diftonglarning bir unli tovushlar bilan almashishi. Masalan: “bike” “baka”ga transformatsiyalanadi, bu yerda /aɪ/ diftongi /a/ ga aylanadi; **b)** yozuvda ikkita fonema bilan ifodalash: “rayar” (ispan tilida bu so‘z boshqa ma’noga ega) inglizcha “to write”dan hosil bo‘lgan, bunda /aɪ/ diftongi “ay” tarzida ikkita harf bilan ifodalanadi va hokazo.

3. *Ko‘plab unlilar yozuvda ifodalanganidek, yoki ispan tilidagidek talaffuz qilinadi (substitutsiya)*: **a)** “a” deyarli har doim /ʌ/ , “o” – /o/, “u” – /u/ (q yoki g dan keyin kelmasa), “i” – /i/ kabi talaffuz qilinadi va hokazo. Masalan: ingliz tilidagi “lecture” so‘zidan hosil bo‘lgan “lectura” so‘zida “a” tovushi /ʌ/ kabi, “u” tovushi esa /u/ kabi talaffuz qilinadi va boshqalar; **b)** “u” unlisining “o” unlisi bilan tez-tez almashtirilishi, shunga muvofiq /u/ fonemasi /o/ ga o‘zgaradi: “lonche”

¹⁴ Вайнрайх У. Языковые контакты. – Киев: Вища школа, 1979. – С. 45-46.

(ingl.: “lunch”), “troque” (ingl.: “truck”) va boshqalar.

4. *Undosh tovushlarning almashtirilishi (substitutsiya)*: **a)** “h” bo‘g‘iq bo‘g‘iz undoshi sifatida emas, balki aniqroq va qattiqroq talaffuz qilinadi: inglizcha “to hang out” so‘zidan olingan “hanguear” spangl. fe’li aniq artikulyatsiyalanuvchi /h/ tovushiga ega; **b)** /ð/ va /θ/ fonemalari (ispan tilida so‘zlashuvchilarning meksikalik qismi uchun) mos ravishda /d/ va /s/ bilan almashtirilishi mumkin: “the” – /de/ kabi, “think” – /sɪnk/ kabi talaffuz qilinadi hamda boshqalar; **d)** “r”, “t”, “d” kabi undoshlarning aniq va qat’iy talaffuz qilinishi; **e)** “l” undoshi keyingi tovush va so‘zdagi o‘ringa qarab tishlararo, tish, alveolyar yoki palatal bo‘lishi mumkin; **f)** “g” dan keyin /e/ va /i/ fonemalari kelganida yumshoq talaffuz qilinadi, ammo aniq /h/ – “registrar” (ing.: “to register”) /rehɪstrɑr/ kabi talaffuz qilinadi va hokazo; **g)** ispan tilida mavjud bo‘lmagan /w/ lab tovushining agar so‘z o‘rtasida yoki undoshdan keyin bo‘lsa, /u/ bilan, agar so‘z boshida bo‘lsa, /gu/ bilan almashtirilishi: “suéter” (ing.: “sweater”) yoki “güisqui” (ing.: “whiskey”) va boshqalar.

5. *Qo‘sh undoshlarning yo‘qotilishi (farqlarning reinterpretallashi)*. Masalan: “fútbol” (ing.: “football”), “bil” (“bill”), “atender” (“to attend”) va hokazo.

6. *Dastlab talaffuz qilinmagan fonemalarning talaffuz qilinishi (kuchli differentsiatsiya)*: **a)** oxirgi talaffuz qilinmaydigan “e” (ingliz tilida) talaffuz qilinadi: “complete” ispancha /komple‘te/ bilan o‘xshash talaffuz qilinadi; **b)** qo‘sh “e” unlisi /e/ qo‘sh tovushi sifatida o‘qilishi mumkin; **d)** qo‘sh “o” unlisi ikkita /o/ tovushi sifatida o‘qilishi mumkin: “door” – /door/ tarzida talaffuz qilinishi mumkin; **e)** ingliz ekvivalentda talaffuz qilinmaydigan “g” undoshining talaffuz qilinishi: “diseñada” (ing.: “designed”) sifatdoshi /designe‘da/ kabi talaffuz qilinadi va hokazo.

7. *“Spanglish”da ba’zi fonemalarning so‘zlarga qo‘shilganda talaffuz qilinmasligi (kuchli differentsiatsiya)*: nutqda o‘zidan keyin /e/ yoki /i/ tovushlari kelgan “q” va “g” undoshlari asl talaffuzini saqlab qolish uchun o‘zidan keyin talaffuz qilinmaydigan “u” ning yozilishini talab qiladi: “parquear” (ing.: “to park”), “baquear” (“to back up”) va hokazo.

8. *Urg‘uning o‘zgarishi*: **a)** “ción” /sɪ‘on/ suffiksi almashtirilgan so‘zlarda. Masalan: “aplicación” so‘zida urg‘u ingliz tilidagi asl qo‘llanish (application)dan farqli ravishda oxirgi bo‘g‘inga tushadi; **b)** “able” bilan tugaydigan sifatlar, bu yerda ingliz tilidagi o‘xshash qo‘shimchadan farqli o‘laroq, urg‘u “á”ga tushadi: “believable” va “usable” so‘zlari /belɪvə‘ble/ va /usə‘ble/ tarzida talaffuz qilinadi va hokazo.

Morfologik interferensiya “spanglish”da inglizcha so‘zlarning ispan tiliga xos bo‘lgan affikslarni o‘zlashtirishi hamda so‘z grammatik xususiyatlarining mos ravishda o‘zgarishi, shuningdek, bir qismi ingliz tilida boshqa bir qismi esa ispan tilida ifodalanadigan qo‘shma grammatik shakllardan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Ispan ta’siri morfologiyada kuchliroq seziladi, chunki ispan tilidagi so‘z turkumlari qo‘shimchalar o‘zgarishida ifodalanuvchi ko‘proq grammatik kategoriyalarga egadir. Morfologik interferensiya “spanglish”da quyidagi

shakllarda namoyon bo'ladi.

1. *Nostandart ko'plik son qo'shimchasi*: **a)** undosh bilan tugagan otlarga -es qo'shiladi: "mis sines" (ing.: "sin"), "dos piles" (ing.: "pill"); **b)** ingliz tilidagi sifatlarning ko'plik qo'shimchalarini olishi: "botellas verdes", "caracteres fancifules".

2. *Ingliz tilidagi so'zlarga jinsni ifodalovchi shakl qo'shimchasining qo'shilishi* (asosan, ularning ispancha ekvivalentlarining jinsiga monand): **a)** birga kelgan artikl orqali jinsni ifodalash. Masalan: "las stores" (a.j.), "los malles" (e.j.), "una wife" (a.j.), "un outlet" (e.j.); **b)** tobelangan sifat, sifatdosh yoki olmosh orqali jinsni aniqlash: "esta society" (a.j.), "poquito sleep" (e.j.).

3. *Fe'llar va sodda fe'l shakllarining hosil bo'lishi*: "spanglish"da fe'lning noaniq shaklini hosil qilishda inglizcha so'zdan o'zak o'zlashtiriladi, -e- suffiksi (qo'shimchasiz) hamda -ar, -er, -ir ispancha fe'l qo'shimchalari qo'shiladi (mos ravishda I, II, III tuslanish): "taipear" ("to type"), "draidir" ("to dry"), "enjoyer" ("to enjoy") va boshqalar. Biz tomonimizdan topilgan 70 dan ortiq fe'llardan faqat uchtasi III tuslanishga va faqat ikkitasi II tuslanishga tegishlidir.

O'zgartirilgan fe'llar qo'shimcha bilan bir qatorda shaxslarda tuslanish xususiyatini, shuningdek, ispan tilida bo'lgani kabi, qo'shimchalar o'zgarishida ifodalanuvchi bir xil zamon grammatik shakllarini oladi. Masalan:

Oddiy hozirgi zamon:

yo forwardeo	nosotros forwardeamos
tu forwardeas	vosotros forwardeáis
el, ella forwardea	ellos, ellas forwardean

Oddiy o'tgan zamon:

yo forwardeé	nosotros forwardeamos
tu forwardeaste	vosotros forwardeásteis
el, ella forwardeó	ellos, ellas forwardearon

Oddiy kelasi zamon:

yo forwardearé	nosotros forwardearemos
tu forwardearás	vosotros forwardearéis
el, ella forwardeará	ellos, ellas forwardearán

-se bilan tugaydigan o'zlik fe'llari ham shunday tuslanadi:

Hoz.: yo me remembreo	nosotros nos remembreamos
tu te remembreas	vosotros os remembreáis
el, ella se remembra	ellos, ellas se remembran

4. *Qo'shma fe'l shakllari*: **a)** ko'p hollarda ispan tilidagi shunday shakllarga o'xshash tarzda yasaladi. Masalan: "hubimos draidido", "estar foloweando"; **b)** "spanglish" tilidagi "haber" yordamchi fe'li mukammal shakllarni hosil qilishda ingliz tilidagi "to have" fe'lga almashishi mumkin: ispancha "había estado enamorado" o'rniga xuddi shunday inglizcha "had been enamorado" yoki "hubimos oido" o'rniga "we have oido"; **d)** grammatik shakllarning qisman almashinishi. Masalan: "estás exaggerating" (ingl. "you are exaggerating"); "estaba runeando" ("was running") yoki "are haciendo" ("are doing"), "will curar" ("will cure").

5. -ado/ada, -edo/eda, -ido/ida sifatdosh qo‘shimchalari yordamida (fe‘l tuslanishiga muvofiq) *fe‘l shakllaridan sifatdosh shakllarining hosil bo‘lishi*. Masalan: “unfinisheada” (ing.: “unfinished”, isp.: “incompleto”), “designheada” (ing.: “designed”, isp.: “diseñado”), “usedo” (ing.: used, isp.: usado).

6. *Ekvivalent morfemalar funksiyalarining nusxalanishi* (ma‘nosi yoki tashqi ko‘rinishi o‘xshash bo‘lgan bog‘langan erkin morfemalarning bir xillashishi)¹⁵:
a) predloglar (old ko‘makchilar): ispancha *en* va inglizcha *in/on*: “*on la superficie*” (isp.: “en la superficie”), “*en spite de que*” (ing.: “in spite of which”) va boshqalar;
b) o‘xshash grammatik shakllarning o‘zaro almashinishi: infinitivning – “forget *de incluir*” (ing.: “forget to include”, isp.: “olvidarse de incluir”); sifat darajalarining: “*la más beautiful*” (inglizcha “the most beautiful” hamda isp. “la más linda” ortirma darajadagi shakllarining birlashishi) va boshqalar.

7. *Funksional morfemalarning qo‘sh qo‘llanishi yoki ortiqcha grammatik shakl*: infinitiv – “allowed me *to entender*” (-er qo‘shimchasi n.sh. + inglizcha n.sh. yuklamasi “to”ni anglatadi), “wanted *to hacerse*”, “ready *to luchar*” va boshqalar.

“Spanglish”dagi **sintaktik interferensiya** gaplarda so‘zlarning birikish qoidalari va gap tartibining buzilishida namoyon bo‘ladi. U minus segmentatsiya (so‘zlar sonining kamayishi) va replasatsiya (gapdagi noto‘g‘ri so‘z tartibi) shakllarini olishi mumkin. Amalga oshirilgan tahlilda ortiqcha segmentatsiyaning hech qanday ko‘rinishi, ya‘ni so‘zlar sonining ko‘payishi kuzatilmadi. “Spanglish”da sintaktik interferensiya quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

1. “It rains” yoki “It snows” kabi gaplarda “*it*” *shaxssiz olmoshining tushib qolishi*: olmosh talab qilinmaydigan ispancha “Llueve” va “Nieve” varianti bilan bog‘liq ravishda “*Rains*”, “*Snows*” shakllarida qo‘llanishi mumkin.

2. *Gapdagi holning o‘zgaruvchan (variativ) o‘rni*: **a)** payt holi: “¿*Tomorrow vas a la marqueta?*”, “¿*Vas a la marqueta tomorrow?*” “¿*Vas tomorrow a la marqueta?*” variantlari teng; **b)** harakat tarzi (ravish) holi: “*With much amor ella read it*” (ing.: “She read it with much love”); **d)** o‘rin holi: “...his alma will wander forever *en el mundo*”, bunda “will wander in the world forever” (ing.), “deambulará en el mundo para siempre” (isp.) grammatik jihatdan to‘g‘ri.

3. *Yoyiq so‘roq gaplarda so‘z tartibining buzilishi*: ingliz va ispan tillaridagi gap tuzish qoidalarining aralashishi: “*Quién te crees que you are?*” – grammatik jihatdan to‘g‘ri shakl quyidagicha: “Who do you think you are?” (ing.), “¿*Quién te crees que eres?*” (isp.).

4. *To‘ldiruvchining o‘zi bog‘lagan kesimga nisbatan o‘zgaruvchan o‘rni* – to‘ldiruvchi yoki unga bog‘langan kesim qaysi tildan olinganligiga bog‘liq: **a)** olmoshlar bilan ifodalangan to‘ldiruvchilar: “El niño *le hit*” va “El niño hit *him*” variantlari ekvivalent; **b)** ispancha yoki modifikatsiyalangan fe‘l bilan noaniq shaklda qo‘llanishi: to‘ldiruvchining fe‘lga birikishi – “you can *hacerme some taquitos*”; “to *ledearlo casi por completo a forgetearla*” va h.k.

5. *Vositali to‘ldiruvchilarda predloglardan foydalanishdagi interferensiya* – bunda ikki tashkil etuvchi tillarning o‘zaro ta‘siri tengdir: **a)** ispan tilining ta‘siri:

¹⁵ Вайнрайх У. Языковые контакты. – Киев: Вища школа, 1979. – С. 73-74.

“embarazada by twins” jumlasida ingliz tili nuqtayi nazaridan “with” predlogi to‘g‘ri bo‘lar edi. Biroq ispancha “embarazada de gemelos” jumlasidagiga o‘xshab, noto‘g‘ri almashtirish sodir bo‘ladi; “*escaparse of reality*” jumlasida ingliz tilidagi “escape the reality” predlog qo‘llanilmaydigan to‘g‘ri variant o‘rniga ispan tilidagiga o‘xshab “*escaparse de la realidad*” jumlasida ta’sirida “dan” predlogi qo‘llanadi va hokazo; **b)** ingliz tilining ta’siri: “*pensar de shopping*” jumlasida “en” predlogi talab etiladi, ammo ingliz tilidagi “*think about shopping*” jumlasiga o‘xshab “de” predlogi ishlatilgan; “*soñar de mama*” jumlasida qo‘llanishi kerak bo‘lgan “con” predlogi (“*soñar con mama*”) o‘rniga, inglizcha “*dream about mama*” iborasi ta’sirida “de” predlogi ishlatilgan va hokazo.

6. *Aniqlovchining aniqlanayotgan so‘z (aniqlanmish)ga nisbatan o‘zgaruvchan pozitsiyasi* – o‘rni aniqlovchining qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganiga bog‘liq: **a)** aniqlovchi sifat bilan ifodalanganida aniqlanayotgan so‘zdan oldin ham (ingliz tilidagi kabi), keyin ham (ispan tilidagi kabi) kelishi mumkin: “*era un far better animal*”, bu yerda “*far better*” aniqlovchisi “*animal*” so‘zidan oldin keladi; “*de tan famoso y worthy caballero*” ispan tilidagi “*tan famoso*” va inglizcha “*worthy*” sifatlari bir xil aniqlovchilar sifatida qo‘llanadi va aniqlanuvchi “*caballero*” otidan oldin keladi; **b)** aniqlovchi sifatdosh bilan ifodalangan, asosan, tobelangan so‘zlarga ega bo‘lgan sifatdosh aniqlovchilar aniqlanayotgan so‘zlardan keyin, ega bo‘lmaganlari esa oldin keladi. Masalan, aniqlanmishsiz aniqlovchilar: “*Good day, estimado peasant*”, “*She was a devoted esposa*”; aniqlovchilar aniqlanmishlar bilan: “*el grupo ... compuesto de Middle-class, Suburban Americans estrenando su primer cheque*” jumlasida ikkita sifatdoshli oborot; **d)** aniqlovchi olmosh bilan ifodalangan – o‘rni o‘zgarmaydi, chunki ikkala tilda ham ular aniqlanayotgan so‘zlardan oldin keladi: “*nuestras heroic stories*”, “*my sweet amor*”, “*todos sus belongings*”; **e)** aniqlovchi tartib son bilan ifodalanganida aniqlanayotgan so‘zlardan oldin keladi, chunki bunday tartib ikkala tashkil etuvchi tilga ham xosdir: “*segundo chapter*”, “*first chivalry libro*”.

“Spanglish”da leksik, so‘z yasalishi va stilistik interferensiya” nomli uchinchi bobda “spanglish” lisoniy iyerarxiyasining ko‘rsatilgan sathlaridagi interferensiya tahlil qilinadi. O‘rganilgan misollar asosida tashkil etuvchi tillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir qonuniyatlari aniqlangan.

Leksik interferensiya “spanglish”da, asosan, kod almashinuvi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi, shuningdek, ayrim ingliz so‘zlarining ispan tilidagi kontekstda qo‘llashni; turg‘un so‘z birikmalarini bir tildan ikkinchi tilga yetkazishda kalkalash, shuningdek, diaparonimiyani, ya’ni ingliz tilidagi tashqi o‘xshash so‘zlar ta’sirida so‘zlarning ispancha ma’nosidagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Leksik interferensiyaning namoyon bo‘lishini quyidagi misollar asosida ko‘rib chiqamiz:

1. *Muayyan inglizcha so‘zlarning ispancha kontekstda ishlatilishi*: ispan tilidagi gaplarda “*mall*”, “*shopping*”, “*store*”, “*meeting*”, “*schedule*”, “*clash*”, “*okay*”, “*quest*” va boshqa so‘zlarining ishlatilishi ommalashgan: “*Te veo ahorita, me voy de shopping para el mall*”¹⁶.

¹⁶ Осинцева Т.В. Спэнглиш как феномен заимствований в испанском языке. – Белгород: Белгородский

2. *Kodlarning almashishi (code-switching)*: “Who knows, but in the *futuro*, when the *verdadera historia* of my famous deeds *sea contada*, the sages *que la lean, la aplaudirán y la esparcirán por todo el mundo*”. Bunday holda bir tilning soʻzlari va iboralarini ikkinchisining grammatik qoidalariga moslashtirish hamda har bir tashkil etuvchi tilning asl grammatikasini saqlab qolgan holda kodlarni almashtirish mumkin.

Bundan tashqari, turgʻun soʻz birikmalarning qismlari ham kod almashinuviga moyil boʻlishi mumkin: “shut your *boca*” (ing.: “shut your mouth”), “abre your *ojos*” (“open your eyes”), “for *un while*” (“for a while”) va boshqalar.

3. *Turgʻun soʻz birikmalarining kalkalanishi*: frazeologik birliklar soʻzma-soʻz tarjima qilinadi. Masalan: “*llamar para atras*” inglizcha “to call back”ning soʻzma-soʻz tarjimasi ispancha turgʻun soʻz birikmasi “*devolver la llamada*” oʻrnida qoʻllanadi; ispancha “¿*Qué desea?*” jumlasini oʻrniga “¿*Cómo puedo ayudarte?*” – inglizcha “How can I help you?” jumlasining soʻzma-soʻz tarjimasi va boshqalar. Mazkur holatda leksik interferensiyaning ingliz tashkil etuvchisi taʼsiri kuchliroqdir.

